



USHR, UNUTIB BORILAYOTGAN MOLIYAVIY IBODAT

Begimov Muhammadjon Begimovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik" yo'nalishi 1- bosqich magistranti

e-mail: begimovich1990@gmail.com

tel: (+998-91) 4089080

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7992894>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

Ushur, Xaroj, Zakot, Ziroat, Saxiylik, Baxillik, Dehqon, Fermer, Soliq, Faqir, Kambag'al.

ABSTRACT

Ushr ibodati haqida kerakli ma'lumotlarni bilish va ularga amal qilish har bir musulmon uchun o'ta zarurdir. Ziroat mahsulotlaridan chiqariladigan zakotni "ushr" deb atash odat bo'lib qolgan. Shuningdek, ziroat mahsulotlari nisobi va bu sohaga tegishli ko'pgina masalalarni tafsiloti bilan o'rganishlik ham insonlar oldidagi vazifalardandir.

Hozirgi kunda ko'p odamlar ushrga oid turli masalalarni tinmay so'rab turadilar. Chunki bu mavzuni o'rganish yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Ushr va unga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga olgan o'zbek tilida yozilgan manbalar ham juda ham kamdir.

Ushbu va bunga o'xshash ko'pgina omillarni hisobga oladigan bo'linsa, bizni ushbu mo'jazzgina maqolamiz, bu boradagi ko'pgina masalalarni to'g'ri tushunib olishimizda yordam bersa ajab emas.

Bugungi kunda barchaga ma'lumki butun insoniyatning hayot kechirishligi asosan 3 ta: hunarmandchilik, tijorat va ziroatga bog'liqdir. Bularning barchasi inkor qilib bo'lmas haqiqatdir.

Shuning uchun ham Islom dini insonlarni yaxshi yashashligi uchun kasb qilishga targ'ib qiladi. Kasb qilishlikning ahamiyati borasida esa bir qancha joylarda dalillar kelgandir. Yer yuzidagi barcha tirik jon borki ularning yashab qolishligi yeb- ichishga bog'liqdir. Bularsiz birorta ruh egasining yashab qolishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Kimki qo'li bilan kasb qilib ahli oilasini boqar ekan va boshqalarga yetib kelishiga sababchi bo'lar ekan, u inson o'zining hayoti boqiy qolishi va davom etishi uchun katta ish qilgan bo'ladi. Shu sababli ham ziroat va qishloq xo'jaligi jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Dehqonchilik faqatgina inson hayoti uchun foidali emas, balki Alloh taoloning zabonsiz maxluqotlarining ozuqalanishligi, parranda-yu darrandalar ham bundan bir xilda foyda ko'radi. Bu esa dehqon uchun sadaqai joriya hisoblanadi. Hadisi shariflarda bunga dalolatlar bor bo'lib:

Anas r.a dan rivoyat qilinadi:



“Nabiy sallolohu alayhi va sallam: **“Qaysi bir musulmon bir ko’chat eksa yoki biror dehqonchilik qilsa, undan qushmi, insonmi, hayvonmi yesa, albatta uning uchun bundan sadaqa hosil bo’lur”**”, dedilar”¹.

Shu o’rinda ma’lum bo’ladiki dehqon yetishtirgan narsalaridan o’zi ixtiyori bilan biron narsa bersa ham yoki, Alloh taoloning zabonsiz maxluqotlari ozuqlansalar ham dehqonga ajru-savob bo’lar ekan. Ammo dehqonning zimmasiga dehqonchilik maxsulotlarini yig’ishtirib olgan vaqtida, yig’ilgan hosildan ma’lum bir qismini berishlik vojib bo’ladi. Dehqonning zimmasiga dehqonchiligidan chiqqan narsa uchun ushr yoki ushrning yarmi ulamolar nazdida bilittifoq vojib bo’ladi.

Ushr bu – arabcha so’z bo’lib, o’ndan bir degan ma’noni bildiradi. Ushr dehqonchilik va bog’dorchilik mahsulotlarining zakoti. Dehqon agar hosilni daryo, soy yoki yomg’ir kabi suvlar bilan sug’organ bo’lsa, u hosilini yig’gan kunida ushr berishligi vojib bo’ladi.

Xaraj bu - arabcha so’z bo’lib, yigirmadan bir, ya’ni o’ndan birning yarmi degan ma’noni bildiradi. Dehqon agar hosilni boshqa asboblari yordamida sug’organ bo’lsa, u holda ushrning yarmini beradi, ya’ni xarajni.

Demak, ma’lum bo’ldiki dehqon yig’gan maxsulotlaridan ushr yoki ushrning yarmini berishlik farz bo’lar ekan. Bu borada ahli ilmlarning birortasining ixtilofi yo’q. Ushrning farzligi Qur’on, hadis va ummatning ijmosi bilan sobitdir. Bu haqida Alloh taolo aytadi:

“Yig’im terim kunida haqqini beringlar” (*Anom surasi, 141-oyat*)², deyilgan.

Ushrning farz ekanligi hadisi shariflar bilan ham sobit bo’lgandir. Chunonchi imom Ahmadning “Musnad” kitoblarida: “Qaysi yer yomg’ir suvi bilan sug’orilsa, undan ushr beriladi, chelak va shunga o’xshash narsa bilan sug’orilsa ushrning yarmi vojib bo’ladi”, deyilgandir.

Shu o’rinda ushbu maqolani o’qigan har bir kishida bir savol tug’ulishi tabiiy, ya’ni, ushrning nisobi qancha? Dehqon chiqqan maxsulotining qancha qismidan qanchasini beradi?

Bu borada ulamolar nazdida ixtiloflar mavjud bo’lsada ammo, Abu Hanifa rohmatallohi alayh “Ziroat maxsulotlarining ozidan ham, ko’pidan ham ushr olinadi” deganlar. Ya’ni ushrning farz bo’lishi uchun nisob tayin qilinmagan. Ammo yana bir masala borki ko’pchilik bu masalaning aslini yaxshi bilishmaydi. Ya’ni kishi o’z hovlisini atrofini devor bilan aylantirib olgan bo’lsa, bu yeridan ya’ni uy hovlilari ichidagi maxsulotlaridan ushr berilmaydi. Daladagi yerlaridan va dalahovlisidagi yerlaridan chiqqan maxsulotlaridan ushr yoki xaraj beradi.

Ushrni tarixi Odam alayhissalomning ikki o’g’li Qobil va Hobil davriga borib taqaladi. Qobil va Hobil ikkalasiga qurbonlik qilish buyurildi. Hobil chorvachilik bilan shug’ullanar edi va u eng yaxshi qo’yini qurbonlik qildi, Qobil esa dehqonchilik bilan shug’ullanar edi. U bo’lsa ziroat maxsulotlarining ichidan chirigan mevalarini, ziroatlarini ajratib qurbonlik qildi. Alloh taolo Hobilnikini qabul qildi, Qobilnikini qabul qilmadi. Xulosa shuki kishi beradigan narsalarining ham berayotgan vaqtida eng yaxshilaridan bergani afzal bo’lar ekan.

Demak, ushrni o’zini berilsa yoki, uni yoniga yana ikki qop qo’shib qo’yilsa ham Alloh taolo kambag’allikdan boyib ketmaydi, zaiflikdan kuchayib ham qolmaydi. Alloh taolo kambag’almaski bandalarning ushriga qarab qolgan. Berilsa ham inson o’zi uchun bergan

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Sharq. Toshkent – 2008.

² Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.



bo'ladi. O'zi berilayotgan narsa ham aslida ikki, uch, bir qop narsa xolos. Yana uni kimga berilyapti? Qarindoshga, qo'shniga, mahallaga va boshqa odamlarga berilyapti. Berilmasachi? Bu yildan boshlab to bandaning o'lim muddati yaqinlashgunigacha ushr bermasa ham hech kimga zarari yo'q. Zarar kimga bo'ladi, faqat insonni o'ziga bo'ladi xolos, boshqaga emas.

Dehqonchiligini ushurini berayotgan inson yana xursand bo'lishi mumkin, Alloh taolo menga shunday ehson qilishlik baxtini berdi, ehson qilishni menga onson qildi deya xursan bo'lishi mumkin.

Payg'ambar s.a.v kimlarga yaxshilik qildilar? Faqat musulmonlargami? Yo'q: qo'shnisi yahudiyga ham yaxshilik qildilar, kasalga ham, musofirga ham, ayollariga, sahobalarga, do'stlariga, insoniyatdan tashqari hayvonot olamiga ham yaxshilik qilar edilar.

Alloh taolo aytadi:

"Bu yerda bir-biriga qo'shni bo'lgan bo'lak-bo'lak (ya'ni biri unumdor bo'lsa, biri sho'r) yerlar, uzumzor bog'lar, ekinzorlar va shoxlab ketgan-shoxlamagan xurmolar bo'lib, (ularning hammasi ham) bir suv bilan sug'orilur. (Lekin) Biz ularning ayrimlaridan ayrimlarini ta'mliroq-yeyishliroq qilib qo'yurmiz, Albatta, bunda ham aql yurgizadigan qavm uchun oyat-ibratlar bordir". (Ra'd surasi 4-oyat)³, deyilgan.

Bu oyatning sharhi shundan iboratki, Alloh taolo yerga qaragin deydi, yer o'sha bitta yumaloq yer, suv ham o'sha biz bilgan suv. Lekin o'sha bitta yer va bitta suvdan men turlik narsalarni, turlik ne'matlarni chiqaradigan zotman deydeyapti. Bu yerdan qalampir ham chiqaveradi, qovun ham chiqaveradi. Bunday qilishlik bandaning o'zini qo'lidan kelmas edi. Shunday ekan banda kimga nimani berayotganiga yaxshilab qarasin. Aslida bu berayotgan narsalarini unga Alloh berdi va unga berishlik imkoniyatini ham aynan shu bandasiga berdi.

Alloh taolo bizlar beradigan ushrimizga muxtoj emas, balki unga o'zimiz muxtojdirmiz. Haj surasining 37 - oyatini tafsirida shunday keladiki:

"Sizlar qurbonlik so'ysalaring meni huzurimga uni go'shi ham kelmaydi qoni ham kelmaydi. Men unga muxtoj emasman deydi Alloh taolo. Balki sizlarning huzurlaringdan menga Allohdan qo'rqar ekan degan narsa, ya'ni taqvo keladi xolos, deydi"⁴.

Bundan tashqari ushr berishlik uchun boy bo'lish shart qilinmaydi, zakottan farqli o'laroq. Yuqorida aytilganidek ushr uchun nisob shart qilinmagan. Shuningdek bir yil aylangan bo'lishlik ham shart emas.

Shu o'rinda muhim bir tanbehni eslatib o'tishlik lozim bo'ladi. Hech bir kishi zakot bilan ushrni bermaslikni yo'lini axtarmasligi kerak bo'ladi. Chunki bu haq kambag'al va miskinlarning haqqidir. Bu haqlarni o'z egalariga qaytarish lozim bo'ladi. Agarda kishi yo'l axtarib ushrni yoki zakotni bermaslikga harakat qilsa Allohning makriga duchor bo'ladi. Berishga qodir bo'lgan Zot olib qo'yishga ham qodirdir. Alloh taolo "Oli Imron surasi 54-oyat" da shunday deydi:

"Ular makr qildilar. Alloh ham makr qildi. Alloh makr qiluvchilarning "Zo'ri" dir".

Din aslida bu to'laligicha xulqlanish deganidir. Kishi to'plagan mol - dunyosini zakotini yohud ushrini berar ekan, u o'zidagi baxillik degan kasallikdan xalos bo'ladi. Ma'lumki baxillik

³ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.

⁴ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.



natijasida bandaning moliga aralashib qolgan kambag'al-u miskinlarning haqlari ado topmay qoladi. Agarda haqlar o'z o'rniga qo'yilmasa jamiyatda ko'plab haqlar paymol bo'lishiga olib keladi.

Saxiylik mo'min kishida maqtalingan sifatlardan bo'lib bu sifat bilan sifatlangan kishi ayni Rasululloh (s.a.v) ning xulqlari bilan xulqlangan hisoblanadi. Zero Payg'ambar (s.a.v) doimo insonlarning eng qo'li ochig'i bo'lganlar. Shundan ma'lum bo'ladiki qo'li ochiqlik erkak kishiga yarashadigan ishlardan hisoblanar ekan. Baxillik ayol kishiga ham yarashmaydi, ammo erkak kishiga umuman yarashmaydigan bir ish hisoblanadi. Xabarlarda keladiki Payg'ambar (s.a.v) agarda ramazon oyi kelganida ibodatlarning barcha ko'rinishlarida juda ham shijoatlik bo'lar, kechalarini qoim kunduzlarini soim holda o'tqazar va xossatan ul zotning saxiyliklariga kelsak boshqa oylardanda sahiy zotga aylanar edilar.

Ushr va zakot berilar ekan, ularni qay yo'sinda beriladi degan haqli savol tug'ulishi ham tabiiydir. Bu borada ushr va zakotdan ajratiladigan narsaning kambag'allarga manfaati qaysinisida ko'proq bo'lsa o'shani bergan afzal bo'ladi. Kambag'alga ushr yoki zakotni pulini bergan afzal bo'lsa pulini bergan yaxshiroq hisoblanadi, agarda unga maxsulotni berishlik xayrli bo'lsa o'sha maxsulotni berishlik afzal hisoblanadi.

Shu o'rinda yana bir narsani, dehqonlarning davlatga to'laydigan soliqlari ushr o'rniga o'tadimi yoki yo'qmi, degan savolga batafsil javob berib ketishlik zarur bo'ladi. Ya'ni, fermerlar yerdan foydalanganari uchun va olgan daromadalariga ko'ra davlat tomonidan belgilangan soliqlarni davlatga to'laydilar. Soliq to'lash faqatgina fermerlarning zimmasiga emas, balki barcha tadbirkorlar va fuqarolarning davlat oldidagi burchi hisoblanadi. Anashu to'layotgan soliqlari shar'an belgilangan zakot, ushr yoki ushrning yarmi o'rniga o'tish yoki o'tmasligini bilish uchun avvalo bu narsalarni bir biriga qiyoslab ko'rishlik lozim bo'ladi.

Zakot va soliq o'rtasida ko'plab farqlar mavjuddir. Jumladan:

- Zakot musulmon bandaning zimmasidagi farz ibodat bo'lib, Alloh taoloning ne'matlariga shukur qilish va unga yaqin bo'lish niyyatida ado etiladi.
- Soliqlar esa ibodat niyyatidan xoliy bo'lgan to'lovlardir.
- Zakot ibodat bo'lgani uchun unga niyat shart. Bundan tashqari zakot islomning 5 ruknidan biri, 4 ta eng asosiy ibodatlardandir. U ibodat bo'lganligi uchun ham musulmon bo'lmagan kishilarga farz emas.
- Soliqlar esa musulmon va musulmon bo'lmagan kishilarga bir xil majburiyatdir.
- Bundan tashqari ularning nisoblarida ham farq bor. Zakot shariat tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan haqdir. Har qanday mol uchun ma'lum bir nisoblarni belgilab, chegaralab berilgan va ushbu chegaraga yetmagan mollardan zakot berish vojib bo'lmaydi. Nisobga yetgan moldan zakot sifatida olinadigan miqdorlar ham, beshdan bir, o'ndan bir, yigirmadan bir va qirqdan bir kabi miqdorlarga qat'iy belgilab qo'yilgandir. Shariatda belgilab qo'yilgan ushbu miqdorlarni o'zgartirish, almashtirish, ko'paytirish va kamaytirishga hech kimning haqqi yo'q.
- Soliqlarning miqdori esa sharoitga qarab o'zgarib turadi va shu ishga mutasaddi shaxslar tomonidan belgilanadi.
- Shuningdek ularning sobitlik va davomiyligida ham farqlari bor. Zakot yer yuzida islom va musulmonlar turgan muddatgacha doimiy sobit va doimiy farzdir. Uni zolimning zulmi ham, odilning adolati ham yo'qota olmaydi. U namoz kabi mustahkam ahkomdir.



- Soliqlarda esa sibtlik va doimiylik sfati yo'q. Uning turlari ham, nisob va miqdorlari ham o'zgarib turadi. U ehtiyojga ko'ra belgilanadi va ehtiyoj ko'tarilishi bilan soliq ham ko'tarilib ketaveradi.
- Ularning beriladigan o'rinlarida ham farqlari bor. Zakotning Alloh taolo kitobida tayin qilgan, va Rasululloh (s.a.v) so'zlari va fe'llari bilan bayon qilib bergan maxsus sarflanadigan joylari bor. Har bir musulmon kishi o'sha o'rinlardan qaysi biriga berishni xohlasa berishga ixtiyorlidir.
- Soliqlar esa davlatning umumiy xarajatlarini qoplashlik uchun tayin qilinadi va uni maxsus o'rinlarga ishlatish ma'nosi yo'q.
- Ularni davlatni boshqarib turgan hokimiyat, hukumat bilan aloqalarida ham farqlar bor. Soliq hukumat va xalq o'rtasidagi aloqadir. Uni joriy qiladigan ham, talab qiladigan ham, miqdorini belgilaydigan ham, uni kamaytiradigan ham, xohlasa bazisini yoki hammasini bekor qiladigan ham hokimiyatdir. Agar shu soliqni talab qilishni kechiktirsa yoki butkul kechib yuborsa odamlardan hech kim malomat qilmaydi.
- Zakot esa Alloh va banda o'rtasidagi aloqadir. U bandasiga mol dunyo berdi va bandasiga shu moldan zakot berishligini buyurdi. Zakot uning amriga bo'ysunib uning roziligini istab ado etiladi. Agar zakotni yig'ib o'z o'rniga sarflovchi rasmiy taraf mavjud bo'lmasa, u holda har bir musulmon o'z zakotini haqdorlarga yetqazib berishligi lozim bo'ladi. Undan hech qanday holatda zakot soqit bo'lmaydi.

Zakotlar va soliqlar o'rtasida shu va shunga o'xshash farqli jihatlar mavjuddir. Shunga ko'ra davlatga to'lanadigan turli miqdor va turli maqsaddagi to'lovlar zakot o'rniga o'tmaydi. Demak fermerlarning soliqlari ularni ushurni bermaslikdan ozod etmaydi.

References:

1. Ahmad ibn Mustafu Toshkubrizoda. Miftoh as-sa'oda va masobih as-siyoda. 11 jildli. – Qohira: Dor al-kutub al-hadisiyya, 1995. J.9.
2. Mo'minov A.Q. Hanafiy ulamolarning markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o'rni va roli (II-VII/VIII-XIII asrlar): Tarix fan. dokt. dis. avtoref. – T.: TIU, 2003.
3. Mahmud Hasaniy. Al-Marg'inoniyning «Hidoya» asari va unga yozilgan sharhlar. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2008.
4. Mahmud Hasaniy. Al-Marg'inoniyning «Hidoya» asari va unga yozilgan sharhlar. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2008.